Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 16-sentabr 2026-yil

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Fayzullayeva Oydin Baxramjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish, hisob ma'lumotlarining aniqligi, o'z vaqtidaligi va ishonchliligini ta'minlash korxonalarning iqtisodiy samaradorligi hamda boshqaruv sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqotda sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlar, ma'lumotlarga asoslangan tahlil, moliyaviy ko'rsatkichlarni prognozlash hamda hisobdagi xato va firibgarlik xavfini kompleks baholash imkoniyatlari yoritilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida buxgalteriya operatsiyalarini avtomatik nazorat qilish, hisob jarayonlaridagi kamchiliklarni aniqlash va moliyaviy risklarni oldindan baholash mexanizmi taklif etilgan. Natijada sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali buxgalteriya hisobi sifatini oshirish, hisob yuritish xarajatlarini optimallashtirish va korxonalarning barqaror moliyaviy boshqaruvini ta'minlash imkoniyatlari asoslangan.

Kalt so‘zlar: Sun’iy intellekt, buxgalteriya hisobi, raqamli iqtisodiyot, avtomatlashtirish, moliyaviy hisobot, iqtisodiy risklar, ma’lumotlarga asoslangan tahlil, prognozlash, boshqaruv hisobi.

KIRISH

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini yuritishning an'anaviy usullari korxonalar oldida turgan tezkorlik, aniqlik va ishonchlilik talablariga to'liq javob bermay qolmoqda, bu esa xatoliklar va noaniqliklar xavfini oshirmoqda. Muammo shundaki, sun'iy intellekt texnologiyalarini buxgalteriya hisobiga joriy etishning nazariy-

uslubiy asoslari va amaliy mexanizmlari O'zbekiston sharoitida hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu sababli tadqiqotning maqsadi — buxgalteriya hisobini yuritishda sun'iy intellekt texnologiyalarini samarali qo'llashning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar shakllantirishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun mavjud xorijiy tajriba tahlil qilinadi, O'zbekiston korxonalaridagi hozirgi holat baholanadi va hisob jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha uslubiy model taklif etiladi.

Buxgalteriya hisobi korxonaning barcha moliyaviy-xo'jalik faoliyatini aks ettiruvchi eng muhim boshqaruv vositalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli hisob ma'lumotlarining to'liqligi, aniqligi va o'z vaqtida shakllantirilishi korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalgi tadqiqotlarda ham korxonalarning iqtisodiy rivojlanishi buxgalteriya hisobi sifati va samaradorligi bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlangan. Hisob ma'lumotlarining ishonchliligi boshqaruv qarorlari qabul qilishning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, korxonaning moliyaviy barqarorligi, xarajatlar darajasi va foyda ko'rsatkichlari aynan shu ma'lumotlarning sifatiga bog'liq ekanligi asoslangan.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini faqat davriy hisobotlar asosida emas, balki tezkor raqamli ma'lumotlar va doimiy monitoring asosida boshqarish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Tadqiqotda tizimli tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish, iqtisodiy tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiya, ekspert baholash hamda prognozlash usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Ushbu metodologik yondashuvlar buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va raqamlashtirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham qo'llanilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mazkur metodlarni sun'iy intellekt vositalari va ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari bilan uyg'unlashtirish hisob jarayonlari samaradorligini muntazam baholash va iqtisodiy risklarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobida sun'iy intellektdan samarali foydalanishning asosiy shartlaridan biri hisob operatsiyalari harakatini to'liq va aniq qayd etishdir. Birlamchi hujjatning tizimga kirib kelishidan boshlab, uni qayta ishlash, provodka shaklida rasmiylashtirish va moliyaviy hisobotga aylantirilishigacha bo'lgan barcha bosqichlarda shakllanadigan ma'lumotlarni

raqamli tarzda qayd etish boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Sun'iy intellektga asoslangan monitoring tizimi orqali hisob operatsiyalari hajmi, xatoliklar darajasi, noodatiy (anomal) operatsiyalar, debitorlik-kreditorlik qarzlari holati, pul oqimi va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarni muntazam kuzatib borish mumkin. Bu esa hisobdagi nomuvofiqliklar yoki jarayondagi samarasizliklarni tezkor aniqlash imkonini beradi.

Mazkur yondashuvning muhim jihati shundaki, buxgalteriya hisobi samaradorligi faqat yakuniy moliyaviy hisobot orqali emas, balki hisob jarayonining har bir bosqichida baholanadi. Natijada korxona rahbariyati qaysi hisob yo'nalishi bo'yicha xato yoki yo'qotish yuqori ekanligini va uning moliyaviy natijalarga ta'sirini aniqlashi mumkin.

Buxgalteriya hisobini sun'iy intellekt asosida boshqarishning quyidagi ketma-ketligini taklif etish mumkin:

hisob ma'lumotlarini raqamlashtirish → AI asosidagi monitoring → ko'rsatkichlarni tahlil qilish → hisob samaradorligini baholash → muammoli nuqtalarni aniqlash → risklarni prognozlash → boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish → natijalarni monitoring qilish.

Bunda hisob samaradorligini baholashda mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlardan birgalikda foydalanish maqsadga muvofiq. Turli o'lchov birliklariga ega bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun ularni nisbiy qiymatlarga keltirish va normallashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi sifatini oshirish moliyaviy va hisob risklarini o'z vaqtida aniqlash bilan chambarchas bog'liq. Korxonalarda buxgalteriya hisobi bilan bog'liq iqtisodiy risklar hisobdagi xatoliklar, firibgarlik holatlari, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar, valyuta kursi tebranishlari, hisobotlarning kechikishi va me'yoriy-huquqiy baza talablariga rioya etilmasligi kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Hisob risk omillarini baholashda uch bosqichli yondashuvdan foydalanish mumkin. Birinchi bosqichda buxgalteriya hisobi jarayonida uchraydigan risk omillari tizimi shakllantiriladi. Ikkinchi bosqichda ushbu omillarning korxona moliyaviy natijalariga ta'sir

darajasi ekspert baholash asosida aniqlanadi. Uchinchi bosqichda esa risk omillari kompleks baholanadi.

Ushbu yondashuvni raqamli iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellekt vositalari yordamida yanada takomillashtirish mumkin. Bunda hisob operatsiyalariga oid ma'lumotlar muntazam ravishda raqamli tizimga kiritilib, ularning o'zgarish dinamikasi kuzatiladi. Belgilangan chegaraviy qiymatlardan (masalan, odatiy operatsiya hajmi yoki summasidan) chetlanishlar aniqlanganda, tizim orqali tegishli ogohlantirish avtomatik shakllantiriladi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt asosidagi monitoring hisob risklarini faqat ular ro'yobga chiqqandan keyin baholash bilan cheklanmay, ularni oldindan aniqlash va salbiy oqibatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Moliyaviy ko'rsatkichlarni prognozlash

Buxgalteriya hisobi samaradorligini oshirishning yana bir muhim yo'nalishi — kelgusidagi moliyaviy holatni prognozlashdir. Korxonaning likvidligi, pul oqimi, rentabelligi va xarajatlari qanday shakllanishini oldindan aniqlash resurslarni va boshqaruv qarorlarini oqilona rejalashtirish imkonini beradi. Tadqiqotlarda miqdoriy ko'rsatkichlarni prognozlashda ekstrapolyatsiya usullaridan foydalanish hamda yetarlicha uzoq dinamik qator mavjudligini ta'minlash zarurligi ta'kidlangan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida esa ushbu jarayonni avtomatlashtirish imkoniyatlari kengayadi. Korxonaning tarixiy hisob ma'lumotlari muntazam yangilanib borishi natijasida sun'iy intellekt asosidagi prognoz natijalari ham doimiy ravishda takomillashtirilishi mumkin. Natijada korxona moliyaviy resurslarni faqat joriy ehtiyoj asosida emas, balki kelgusidagi moliyaviy prognozlarga muvofiq rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

To'qimachilik va boshqa sohalarda sun'iy intellekt asosidagi monitoring va prognozlash tizimlarining joriy etilishi buxgalteriya hisobi sifatini oshirish bilan birga, moliyaviy risklarni boshqarishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Birinchi navbatda, raqamli hisob ma'lumotlar bazasi korxona moliyaviy holatining real manzarasini aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, ko'rsatkichlar dinamikasini muntazam tahlil qilish orqali salbiy tendensiyalarni (masalan, xarajatlarning asossiz o'sishi) erta aniqlash mumkin. Uchinchidan, prognozlash asosida kelgusidagi ehtimoliy moliyaviy risklarni oldindan

aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Bunda sifat va miqdoriy baholashning uyg'unligi alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotlarda moliyaviy risklarni baholashda sifat va miqdoriy omillarni birgalikda hisobga olish riskning iqtisodiy tabiatini to'liqroq aks ettirishi qayd etilgan. Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda buxgalteriya hisobi sifatini oshirish va moliyaviy risklarni boshqarish yagona tizim sifatida shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini takomillashtirish va moliyaviy risklarni boshqarish o'zaro bog'liq jarayonlar hisoblanadi. Sun'iy intellekt asosidagi monitoring orqali hisob operatsiyalari, xatoliklar va anomaliyalarning harakatini muntazam kuzatish, hisob sifatini baholash va samarasiz jarayonlarni aniqlash mumkin. Shu bilan birga, moliyaviy ko'rsatkichlarni prognozlash korxonaning kelgusidagi holatini oldindan aniqlash va boshqaruv qarorlarini oldindan rejalashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, raqamli monitoring, prognozlash va kompleks baholashni yagona boshqaruv tizimiga birlashtirish korxonalarda buxgalteriya hisobi sifatini oshirish, moliyaviy xarajatlarni kamaytirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijasida shu narsa aniqlandiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida an'anaviy buxgalteriya hisobi usullari tezkorlik va aniqlik talablariga to'liq javob bermay qolmoqda, bu esa sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni ob'ektiv zaruratga aylantirmoqda. Xorijiy tajriba AI asosidagi avtomatlashtirish vaqt va xarajatlarni qisqartirishini ko'rsatsa-da, uni milliy me'yoriy-huquqiy baza xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish zarur. Mahalliy korxonalarda aniqlangan muammolar (qo'lda bajariladigan operatsiyalar, xatoliklar, hisobotlarning kechikishi) taklif etilgan uch bosqichli model — ma'lumotlarni yig'ish, anomaliyalarni aniqlash va prognozlash — orqali bartaraf etilishi mumkinligi asoslandi.

Tadqiqot natijalaridan korxonalarning buxgalteriya xizmatlari avtomatlashtirishni bosqichma-bosqich joriy etishda, tegishli tashkilotlar me'yoriy hujjatlarni takomillashtirishda, shuningdek OTMlarning tegishli o'quv dasturlarini yangilashda

foydalanishlari mumkin. Kelgusida ushbu mavzuni turli sohalar kesimida AI modellarini moslashtirish, blokcheyn texnologiyasi bilan integratsiyalashgan hisob tizimlarini o'rganish va kichik-o'rta biznes uchun arzon yechimlar ishlab chiqish yo'nalishlarida davom ettirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

3. Muydinov B.N. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini isloh qilishning zarurligi va maqsadlari // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2024. – 4(10). – B. 407-411.

4. Mardonov M.Sh., Suyunov R.R. Korxonalar buxgalteriya tizimida raqamli transformatsiyalarning hozirgi holatining tahlili // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2026. – 6(03). – B. 161-165.

5. Turkmanov A.S. Globalashuv sharoitida biznes va xususiy tadbirkorlikda boshqaruv hisobining o'ziga xos jihatlari // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2026. – 6(01). – B. 106-111.

6. Sun'iy intellekt biznes hisobida: O'zbekiston misolida // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2024. – 4(10). – B. 217-228.

7. Yusupov X. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya axborot tizimlarini takomillashtirish. – 2020.

8. Stratopoulos T.C., Wang V.X. Artificial Intelligence and Accounting Research: A Framework and Agenda. – University of Waterloo, 2025.

9. Sutton S.G., Holt M., Arnold V. "The Reports of My Death Are Greatly Exaggerated" — Artificial Intelligence Research in Accounting // International Journal of Accounting Information Systems. – 2016. – Vol. 22. – P. 60-73.

10. Greenman C. Exploring the Impact of Artificial Intelligence on the Accounting

Profession // Journal of Research in Business, Economics and Management. – 2017. – Vol. 8, No. 3. – P. 1451-1454.

11. Du Toit E. Can artificial intelligence produce a convincing accounting research article? // Accounting Research Journal. – 2024. – Vol. 37, No. 4. – P. 365-380.

12. Hurducaci (Gorea) C.-C. Transforming Accounting through Artificial Intelligence: Towards Superior Efficiency and Accuracy // Development Through Research and Innovation IDSC-2024. – Chişinău: SEP ASEM, 2024. – P. 228-237.

13. Dongre N., Pandey A., Gupta O.P. Artificial Intelligence in Accounting: Opportunities & Challenges. – 2024.

14. Бибилиометрический анализ исследований по искусственному интеллекту в бухгалтерском учете // Bulletin of Economics (KazNU). – 2025. – DOI: 10.26577/be202515229.

15. https://finance.tsue.uz — "Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi" ilmiy jurnali rasmiy sayti

16. https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal — "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali

